

TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSI – TASVIRIY SAN’AT VA YOZUVDA

Ma’murov Diyorbek Saydullo o‘g‘li

Fardu tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Xurshida Fozilova Xayrullo qizi

Fardu tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston tarixida o‘chmas iz qoldirgan yuksak darajada taraqqiy etgan davlat bu Temuriylar davlati edi. Bu sulola davrida Movarounnahr va Xuroson hududlarida ilm fan, savdo-sotiq, dexqonchilik va boshqa ko‘plab tarmoqlar yuksak darajada taraqqiy etgan edi. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz mumkinki Temuriylar sulolasi doimo ilm fan madaniyat rivoji uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga uringan. Mana shu omil tufayli O‘rta Osiyoda XIV-XV asrlarda 2-renessans yuzaga keldi. Ushbu maqolada mana shu renessans haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Temur va temuriylar sulolasi, rassomchilik, yozuv uslublari, nastaliq, Hirot maktabi, Mir Ali Tabriziy, Kamoliddin Behzod. Eron tasviriy sanat maktabi.

Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda ilm fan ma‘rifat yuksak darajada rivojlanadi. Temur va uning vorislari mamlakatda ilm fanni rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shganlar. Ularning davrida hattotlik, binokorlik, hunarmandchilik, ilm fan yuksak darajada rivojlanadi. Temuriylar davridagi ko‘plab ilmiy yangiliklar keyinchalik sharqning boshqa mamlakatlarida va Yevropada ham keng yoyiladi. Bu davrda kitob bosish dastgohi hali kashf etilmaganligi sababli kitoblar qo‘lda ko‘chirilgan edi. Bu juda ham mashaqqatli mehnat hisoblangan. Lekin anashu davrda butun sharqqa mashhur bo‘lgan xattotlik markazi Samarqand va Hirot edi. Bu ikki shaharda 200 dan ziyod mashhur hattotlar faoliyat olib borgan. Ularning faoliyatlari hukmdorlar tomonidan ham rag‘batlantirib turilgan. Temur zamonida yashagan mashhur hattot bu Mir Ali Tabriziy hisoblanadi. U “nastaliq” deb ataluvchi yozish uslubini kashf etgan. Bu yozuv asosida juda ham ko‘plab kitoblarni xattotlik bilan ko‘chiradi. Mir Ali Tabriziy xattotlikni san‘at darajasiga olib chiqadi. Keyinchalik ushbu nastaliq uslubi bilan devorlarga va saroy peshtoqlariga so‘zlar bitish paydo bo‘ladi. Mir Ali Tabriziy juda ham ko‘plab shogirdlar tayyorlagan edi. Ulardan eng mashhuri Mavlono Jafar. Mavlono Jafar nafaqat nastaliq uslubida balki nasx, riqo, muhaqqar, rayhoniy kabi uslublar asosida ham kitoblar ko‘chiradi. Mavlono

Jafarning izdoshlari orasida eng mashhurlari bular: Mavlono Abdulloh oshpaz, Xofiz Bo'ta, Mavlono Mahmud Kotibi Samarqandiy va boshqa ko'plab hattotlarni keltirishimiz mumkin. Mana shu davrda yashagan yana bir yirik hattot bu Mavlono Azhardir. U Sulton Abusaid mirzo saroyida xizmat qilgan. U asosan hattotlikda qita yozishda, mayda va yirik xatlarda kitob ko'chirishda ijod olib borgan. Uning nazdida me'morchilik bilan shug'ullanganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Temuriylar davrida shuningdek rassomchilik ham yuksak darajada taraqqiy etgan edi. To'g'ri rassomlikni bid'at deb hisoblovchi avom xalq va johil ulamolar bunga doimo qarshilik qilib kelishgan. Lekin manashu davrda ham rassomchilik o'zining yuqori darajasida rivojlangan edi. Osha davrlarda dastlab rassomchilik markazi sifatida Samarqand shahri shuhrat qozongan edi.[3:13-b] Bu yerda Shoh Muzaffar va Ustod Mansur kabi rassomlar ulkan nom qozongan edi. To'g'ri ular insonlarning portretlarini chizishgan emas. Ular asosan kitoblarga turli hil rasmlarni zo'r mahorat bilan tasvirlar edi. Ayniqsa Shoh Muzaffar qalam tasviri bilan bezatilgan kitoblar o'zining jonli muhiti bilan insonlarni o'ziga jalb etar edi. Lekin keyinchalik temuriylar Abu Said Mirzo vafotidan so'ng Movorounnahr hududlarida diniy muttasiblik keng avj oladi. Va rassomchilik bilan shug'ullangan juda ko'pchilik insonlar bu yerlardan badarg'a qilingan. Badarg'a qilinganlarning katta qismi Hirot dan boshpana topgan. Bu davrda Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro ilm fanni tushungan va uni rivojlantirishga alohida e'tibor bergan hukmdor edi. Uning saroyida 30dan ziyod rassomlar faoliyat olib borgan.[2: 246-b.] Ularning ichida eng mashhuri bu shubhasiz Kamoliddin Behzoddir. Kamoliddin Behzod oz davrining eng buyuk rassomlaridan biri bo'lgan. U Hirot tasviriy san'at maktabining asoschisi. Behzod chizgan suratlar o'zining nafisligi va hayotiyliigi bilan ajralib turar edi. Aynan Kamoliddin Behzod qizil bo'yoqlar yordamida kitob bezashni u san'at darajasiga olib chiqadi. Keyinchalik uning bu tasviriy uslubi Eron rassomchilik maktabini rivojlanishiga turtki bo'ldi. Behzod nafaqat O'rta Osiyo balki Eronda ham tasviriy san'atni rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Uning eng yaqin shogirdi bu Qosim Ali Chehrakushoydir. U asli kelib chiqishi eronlik bo'ladi. Amir Temur yurishlari davrida ota bobolari Xuroson xududlariga kelib o'rtnashib qolgan edi. Qosim Ali asosan insonlar portretini chizish bilan shug'ullangan. U tasvirlagan tarixiy shahslar qatorida Eron hukmdori Safaviylar davlati asoschisi Ismoil I Safaviyni ham ko'rishimiz mumkin. Hirot tasviriy san'at maktabida shuningdek Maqsud, Mavlono Mirak Naqqosh, Ustod Bobo Xoji, Ustod Shayx Axmad, Mullo Yusuf, Mavlono Darvesh Muhammad va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Ularning hammasi birgalikda Hirot maktabini tashkil etishgan.

Temuriylar davrida ilm fan juda ham rivojlangan. Bu yerdan yetishib chiqqan mashhur hattot va rassomlar keyinchalik Eron, Hindiston va Usmonli turklar davlatidagi maklatblarda ham faoliyat olib borishgan.[6: [\[https://t.me/Erus_uz\]\(https://t.me/Erus_uz\)](https://www.merriam-</p></div><div data-bbox=)

webster.com/dictionary/nastaliq] Ular Oʻrta Osiyo anʼanalarini ham manashu davlatlarda yoyishga harakat qilishgan. Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki Temuriylar davri jahonda oʻchmas iz qoldirgan. Ulardan qolgan meros juda ham ulkan. Ularni oʻrganish va asrab avaylab kelajak avlodga meros qilib qoldish zarur. Bu borada shuni ham aytishimiz kerakki temuriylar davrida yaratilgan ushbu madaniy merosdan hozirgi kunda ham dunyoning qator mamlakatlari hozirgi kunda ham foydalanib kelmoqda. Misol uchun Pokiston davlatida Mir Ali Tabriziy asos solgan nastaliq yozuv uslubidan foydalanib kelinmoqda. Bu borada u yerda alohida xattotlik maktablari tashkil etilgan. Temuriylar davri yuksak madaniyati hozirgi kunda ham oʻzining qadr qimmatini yoʻqotgan emas.

XULOSA

Oʻz zamonasining buyuk davlati boʻlgan temuriylar davlatida ilm fan tarqqiy etgan. Xozirgi kunda xam temuriylar davrida yaratilgan yozuv uslublari yordamida ham qoʻlyozma kitoblar tayyorashda foydalanib kelinmoqda. Anashu davrdagi rang tasvirning qorishma uslublari xozirgi kundagi zamonaviy realizm yonalishi uchun poydevor boʻlib xizmat qilgan. Hozir xam Temur va temuriylar sulolasi davridagi madaniy xayotni oʻrganish borasida ilmiy izlanishlar toʻxtagan emas. Bu borai qilinishi zarur ishlar bisyor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Muhammad Mirzo Xaydar. Tarixi rashidiy. —T.: 2010-y.
2. Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. — T.: Mexnat nashriyoti. 1992-y.
3. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va sanʼat. —T.: Gʻofur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1996-y.
4. <https://donschool86.ru/uz/suschestvitelnoe/propisi-dlya-kalligrafii-skachat-pdf-starye-propisi-sovetskie-uchebniki.html>
5. Nastaliq Definition & Meaning – Merriam-Webster
6. <https://www.merriam-webster.com/dictionar\y/nastaliq>
7. <https://amp.uz.xn----7sbiewaowdbfdjyt.pp.ua/536429/1/nastaliq.html>